

## **TURKISTONDA ASALARICHILIK SOHASIDAGI YUTUQLARNING KO`RGAZMA VA YARMARKALARDAGI NAMOYISHI (XX ASR BOSHLARI)**

J. X. Arziqulov,

o`qituvchi Navoiy Davlat Pedagogika Instituti, Navoiy

### **Annatatsiya**

Ushbu maqolada Turkistonda o`tkazilgan ko`rgazma-yarmarkalarda asalarichilik tarmog`i bilan bog`liq yutuqlar namoyishi haqida manbalar tahlili orqali fikr-mulohozalar bildirilgan

**Tayanch atamalar:** Ko`rgazma, yarmarka, asal, asalhaydagich, asalari, asalarichilik, ari oilasi, tog` asali, namoyish, asalari yashigi, ko`rgazma g`olib, nektar, o`simlik, gerbariy, nav.

### **Аннотация**

В данной статье путем анализа источников высказаны мнения о демонстрации достижений, связанных с пчеловодством, на выставках и ярмарках, проводимых в Туркестане.

**Ключевые слова:** выставка, ярмарка, мед, пасека, пчелы, пчеловодство, пчелиная семья, горный мед, демонстрация, улей, победитель выставки, нектар, растение, гербарий, сорт.

### **Annotation**

In this article, opinions are expressed through the analysis of sources about the demonstration of achievements related to the beekeeping industry at the exhibitions and fairs held in Turkestan.

**Keywords:** Exhibition, fair, honey, apiary, bees, beekeeping, bee family, mountain honey, demonstration, beehive, exhibition winner, nectar, plant, herbarium, variety.



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> July, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Turkistonda qadimdan asalari parvarishlash va asalaridan asal olish ma'lum bo`lsada, asalarichilikni ilmiy asosda yo`lga qo`yish, asalarilari turli navlarining oilalarini maxsus qutilarda asrab boqish, asalhaydagich vositasida qutilardagi ramkalar asalini ajratib olish XIX asr oxirida vujudga kelgan. Turkistondagi qulay tabiiy sharoit, o`simliklar dunyosining rang-barangligi asalarichilik rivojiga imkon beradi. XIX asr oxiri-XXasr boshlarida Turkistonda asalarichilik bilan shug`illangan shaxslar har birida o`rtacha 40-60 oila asalari mavjud bo`lgan<sup>1</sup>.

Turkistonda asalarichilik tarixi masalalari atroficha o`rganilgan emas. Bu yo`nalishda ayrim maqola tadqiqotlardagi ma`limotlarni sanab o`tish mumkin<sup>2</sup>.

TQXJning ko`rgazma va yarmarkalarida 1908 yildan boshlab maxsus asalarichilik bo`limini namoyishi uyushtrala boshlandi. XX asr boshlarida asalari oilalarini maxsus yashiklarda boqish va arilar uchun ozuqabop joylar tanlash borasida ancha yutuqlar qo`lga kiritildi va yutuqlarga erishildi.

1880 yillardan ko`chirilgan rus dehqonlari orasida asalarichilik bilan shugillangan shaxslar haqida ma'lumotlar keltirila boshladi. Sirdaryo viloyati Avliyoota uezdi Avliyoota shahridan 25 chaqirim uzoqlikdagi Aleksandrovsk posyolkasida istiqomat qiluvchi rus dehqoni I.Soplyanov tegirmon va chigitdan yog` olish sexini tashkil etish bilan birga asalarichilik borasida ham yutuqlarni qo`lga kiritdi. O`sha posyolkada istiqomat qilgan oddiy dehqon Ilchenko o`z omadini avval junni qayta ishlash korxonasi ochib, so`ngra asalarichilik bilan shug`illanib sinab ko`rdi<sup>3</sup>. Asalari parvarishlash Farg`ona viloyati Andijon uyezdida, Namangan va O`sh uyezdlarida, Samarqand viloyati Kattaqo`rg`on uyezdida, Panjikentda (hozirgi Tojikiston hududida) keng tarqalgan. Samarqand shahrida rivojlanib, Farg`ona viloyatida 1907-1908 yillarda asalarichilik bilan shug`ullanuvchilar soni 68 nafar, Samarqand viloyatida 35 nafarni tashkil etgandi<sup>4</sup>. Asalarichilik tashabbuskori va rahbari Samarqand viloyati harbiy gubernatori N.Rostovsev edi. U Kattaqo`rg`on ruhoniysi ham bo`lgan. Rostovsev Rossiyadan asalari oilalarini olib kelib,

<sup>1</sup> Donsov K pchyolovoestvu v Turketan//Turkestanskiy sbornik. -Tom 513.-S.27.

<sup>2</sup> Qarang. Hayitov SH.A. Turkistonda asalarichilik jarayonidan lavha (XIX asr oxiri XXasr boshlari) // BuxDU ilmiy axborotnomasi.2018.-№1.-b.150-153, Hayitov J.SH Turkistonda yangi ekin navlarini tarqalishi va ulardagи o`zgarishlar (XIX asr oxir-XX asr boshlari). Buxoro nashriyoti, 2018. -212 bet; Jo`rayev H.P Turkistonga ko`chirilgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (XIX asr oxiri XX asr boshlari) Tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiysi. Farg`ona -2021. -B.125-128.

<sup>3</sup> Nasha kolonizatsiya Sredney Azii (Russkie posyolki v Turkestane) //TS.To 429.-S244-245

<sup>4</sup> Timaev K. Ferganske pchelovodstvo//TS. Tom.508.-S.135-136.



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> July, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Kattaqo`rg`onliklar orasida tarqatdi. TQXJ tashkilotchiligidan Samarqandda 1907 yil 10-15 sentyabrda Ipakchilik va asalarichilik: Samarqand ko`rgazmasi tashkil etildi. Bu soha yangi xo`jalik tarmog`i bo`lganligi uchun ko`rgazmada 13 ta asalarichi, birgina Kattaqo`rg`onda 9 ta asalarichi ishtirok etdi, ulardan 3 tasi mahalliy aholi vakili edi.

Panjikent uchastkasidan 2 nafar asalarichi (1 ta rus, 1 ta tub joy ahali vakili) ishtirok etgan. Ko`rgazmada ramka va yashiklarda asalari asrash va ko`paytirish, asaltortgich (medogonka) bilan asal olish, arilar nektar oladigan o`simliklar navlari kabilar namoyish etildi. Kattaqo`rg`onlik Raim Turdiyev asalarilar uchun 500 tup lipa daraxti ko`chatlarini o`stirganligi, istiqbolda lipa asali olishi haqida ma'lumot bergen.

Panjikentlik asalarichi J.Brezinskiy asal oqishida xizmat qiladigan vositani namoyish etdi, hamda ari shira oladigan o`simliklar gerbariylarini ham nomoyish etdi, biroq, ular kunlarining nomlari noaniq edi<sup>5</sup>.

1908 yil 4-6 iyul TQXJ tashkil etgan, 19 bo`limda tovar va buyumlar nomoyish etilgan ko`rgazmada Turkistondagi asalarichilar ham ishtirok etdi.

Asalarichilik ko`rgazma qatnashchilardan D.P. Grigorev, Monax Lyubimskiy, G. Yakushev, V.K. Burxanov, N.A. Donsov asalari va asalarichilik yutuqlari yuqori baholandi. D.P. Grigorev 2 tusdagi asal: akasiyadan asalari to`plagan qora yorqin asalni namoyish etib kichik kumush medal bilan taqdirlandi. Ruhoniy ota Mobimov ham 2 tusdagi asal namoyish etish bilan birga asalari matkasini va uni suniy ravishda ko`paytirish mumkinligini namoyish etdi. Suniy ravishda ko`paytirilgan asalarini har bir yashigi 2 publ 50 kopikdan sotish mumkinligini ko`rgazmada ko`rsatib berdi. V.K. Burxanov namoyish etgan asal rangi tovlanuvchan va o`ziga xos yoqimli hid taratgan. N.A. Donsov tog` asalini namoyish etib, ilk bor ko`chmanchi asalarichilik amaliyotini namoyish etdi. Agar asalari yashiklari ekinlar gullahiga qarab bir joydan ikkinchi joyga ko`chirilsa asal miqdori oshib qora, sariq, qizg`ish rangli xushtam asal olish mumkinligi uning tomonidan amalda namoyish etildi<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Samarkandskoya vestavka shelkovostva I pchexovodstva// Turkestanskiy sbornik, Tom 440. -S.96-98. Svoja myod //TS, Tom 437.-S.149-154. Perevozka pchyol v Turkestans// TS. Tom 536.-S. 124-125; izvestiya o deyatelnosti Turketanskogo obshestvo selskoe xozyaystva//TS. Tom 545. S.542-549; pchyolovodstvo Vestavka pchyolovodov// Turkestanskiy sbornik. Tom 503.-S.181-182

<sup>6</sup> Marishkin A Otdel pchyolovodstvo na vestavke-yarmarke ustroynoy Turkestanskom obshestvom v selskom xozyastve v g Tashkente 4-5 iyulya 1908 goda// TS. Tom 477. -S.18-20; Pchyolovodstvo Vestavka pchyolovodov// TS. Tom 509.-S. 181-183.

## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> July, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Asalarichilik namoyishi uchun ko`rgazma ishtirokchilari TQXJ tavsiyasi bilan faxrli holat, diplom, kichik kumish medal, bronza medal va pul mukofoti bilan taqdirlandilar.

Xullas, Turkistonda asalarichilik tezda rivojlandi. Bunga sabab Turkiston iqlim sharoiti asalarichilikka qulay sharoit bo`lgan. Asalarichilik nafaqat bu yerda poyda bo`ldi, balik yangi navlari va asal olishning yangi usillari kashf qilindi.

